

## **O'ZBEKISTON TELEOPERATORLIK SOHASINING O'ZIGA XOSLIGI**

**Mahmudova Shoxista Alisher qizi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute  
2-bosqich "Teleoperatorlik" yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada teleoperatorlik sohasining o'ziga xosligi, kadrlarni tayyorlashda muhim vazifalarni belgilab olish, yuqori sifatli telemahsulot yetkazishda teleoperatorning o'rni va mas'uliyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Televide niye, oav, teleoperator, rejissyor, rassom, kamera, montaj.

Jahon axborot makoni globallashuvining kuchayishi ommaviy axborot vositalari sohasida dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga tez va mos ravishda munosabat bildirish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik qayta o'zgarishlar haqida respublika aholisini, dunyo hamjamiyatini o'z vaqtida va xolisona xabardor qilish tizimini takomillashtirish masalasi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, davlat va nodavlat davriy bosma nashrlar, teleradiostudiylar, tahririyat-matbaa komplekslarining miqdor va sifat jihatidan o'sishi, fuqarolik jamiyati institutlari, reklama agentliklari, axborot xizmatlari, media kommunikatsiya, internet jurnalistikasining shakllanishi raqobatbardosh, yangicha shart-sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash zaruratini taqozo etmoqda.

Televide niye kino, teatr san'atlari ifoda vositalaridan foydalanibgina qolmay, o'z imkoniyatlarini ham kashf qildi. Televide niye tufayli yangi janrlar paydo bo'ldi. Montaj san'ati yuksak darajada yangilanib bordi. Televide niye jamoasi ijodiy mahsul berishdan tashqari katta tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish xislatlarini ko'rsatdi. Mamlakatda bo'lib o'tadigan har bir muhim voqeа o'z video izini qoldiradi. Televizion eshittirish yoki yozuv siz keng ko'lamlı tadbirni o'tkazish mumkin emas. Lekin ular aynan teleoperatorlar tomonidan tasvirga olinib, millionlab odamlar voqelikni ularning ko'zlari bilan tomosha qiladi.

Teleoperatorlik - ijodiy kasb. Shuning uchun ham bu kasb egalariga estetik did, kashfiyotchilik, yaratuvchanlik, o'z-o'zini tanqid qilish xususiyatlari asqotadi. Teleoperatorlardan harakatchanlik va chaqqonlik ham talab etiladi, chunki tasvirga olish jarayonlari nafaqat yopiq binolarda, balki ochiq havoda ham, suv ostida ham kechishi mumkin. Teleoperator ishchan, topshirilgan vazifaga mas'uliyat bilan qarashi, ijodiy izlanishi muhim axamiyatga ega.

1956-yilda Toshkent telestudiysi ishga tushishi bilan ommaviy axborot vositalarining tajribali hodimlari bu yerda ishlashga jaalb qilindi. Televide niyedagi muhit, har kungi uzlucksiz ish teleoperator tajribasini oshirishga, hamda izlanishga sabab bo'ldi. Teleoperatorlar qo'lida kamera bilan mamlakatimizni kesib chiqdi. Axborot, mavzuli ko'rsatuvarlar, television jurnallar uchun turli lavhalar, sahifalarni suvratga oldi. San'atimiz arboblari, ishlab chiqarish ilg'orlari, olimlar haqida film-konsertlar, hujjatli telefilmlar yaratib ularning qiyofasini avlodlar uchun saqlab qoldi. Jumladan, television postonovkalar, telespektakllar, ko'p qismli videofilmlar yaratishda teleoperatorning iste'dodi muhim rol o'ynadi.

Televide niye o'zining tezkorligi, ta'sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuxrat qozondi. Ilm-fan, madaniy va ijtimoiy hayotda insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat oldida insonni mas'ulligini tarbiyalash televide niyening asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televide niye kishini har tomonlama estetik talbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish joiz.

Harakatlar strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining ijrosini ta'minlash, shuningdek, hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida teleoperatorlikning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini

ta'minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadi muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutahassislarni tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz rahbari, televideeniye ravnaqiga uning texnik imkoniyatlariga, ijodiy xodimlar malakasiga e'tibor qaratib, "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 27.06.2019 yildagi PQ-4366-son, "O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to'g'risida"gi 24.05.2018 yildagi PQ-3737-son qator farmon va qarorlar qabul qilayapti.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlar axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida sifatlari muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o'zar hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadi ko'zlangan.

Teleoperatorning dunyoqarashi, jahon taraqqiyot qonunlari, chuqur tafakkur qilishi, mutaxassis sifatida o'zidan avval ijod qilgan buyuk san'atkorlar, rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar ijodni o'rganishi, uslub va o'ziga hos xususiyatlarini idrok qilgan bo'lishi kerak. Teleoperator adabiyotni, teatr, kino sa'atini, musiqa, tasviri san'at, jurnalistikani tushungan barkamol inson, har tomonlama yetuk shaxs bo'lishga intilishi shart. Televideeniye o'z tabiatiga ko'ra sintetik san'at turiga kiradi. U barcha san'at turlarini o'zida birlashtirgan holda, texnikani ham o'zida mujassamlashtirgan san'atdir.

Keying yillarda raqamli television texnika taraqqiyoti ilgarilab ketdi. Uning imkoniyatlari kuchayib ijod uchun kata sharoitlar yaratildi. Televizion dasturlar yaratishda rejissyor, muallif, muharrir, rassom, bastakor, ovoz rejissyor, chiroqchi, video va texnik muhandislar ishtirokida televizion asar yaratiladi.

## **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonuni. – T.: 2016 yil, sentyabr.
2. "Oynai jahon fidoyilari" M. Karimov. "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent 2009-yil.
3. "Televideeniye asoslari" M.Muhammedov. "Voris-nashriyot" Toshkent 2009-yil.